

BUXORO-XIVA NEFT-GAZ XAVZALARIDAGI KARBONAT RIFLI FORMATSIYASINING YOSHINI ANIQLASHDA MARJON BOG'LAMLARNING AHAMIYATI

Bo'riyev Sardor Sayfullaevich

Qarshi davlat universiteti assistenti

(Tel)+99891 455 10 11

burievsardor92@gmail.com

Annotatsiya: Karbonat formatsiyasi yotqiziqlarining yuqori qismi Janubiy-G'arbiy Hisor tog'i etaklarini boshqa territoriyalarida 30-130 metrga yetadigan qalin qatlamli pelitomorf oxaktoshlar hosil qilib ularning orasida gil-alevrolitli oxaktoshlarning qatlamchalarni uchratish mumkin.

Kalit so'zlar: Rifogen qatlam, g'ovurdoq, antiklinal, karbonat formatsiya, ammonitlar, rif, Onkolit va detritlar, paleobasseyn, rudistlar, gastropodalar.

THE IMPORTANCE OF CORAL LIGAMENTS IN DETERMINING THE AGE OF THE CARBONATE REEF FORMATION IN THE BUKHARA-KHIVA OIL AND GAS FIELDS.

Annotation: The upper part of the carbonate formation beds of the southwestern Mount Hissor skirts, forming thick-layered pelitomorph oxactoshes that reach 30-130 meters in other territories, among which layering of chalk-aleurolite oxactoshes can be found.

Keywords: Rifogenic layer, pore, Anticline, carbonate formation, ammonites, reef, Oncolite and detritus, paleobassein, rudists, gastropoda.

Karbonat formatsiyasining yuqori qismi Kuhitong tog'dagi kesimi namunasida I.Y.Mixeev va N.K.Fortunatova ma'lumotlarini hisobga olgan holda, hamda S.T.Xusanovning izlanishlari natijasida yotqiziqlarni uchta bog'lamga (pachkaga) bo'lish mumkin.

1. Oxaktoshlar asosan to'q kulrang bo'lib, qatlami to'liqinsimon va tarkibida qisman gillar uchraydi. Qalinligi 30-40 metr.

2. Rifogen qatlami yotqiziqlari asosan biogermmlarning bir-birining ustma ust qaytarilishidan tashkil topgan bo'lib, ayrim kesimlarda gilli pelitomorf oxaktoshlar qatlami uchraydi. Ulardan *Perisphinctes ex gr. elisabechae* Riaz., *P. cf. tizianiformis* Chof. ammonitlari avlodlarining vakillari aniqlangan, qalinligi 70-80 m.

3. Pelitomorf, qalin qatlamli kulrang oxaktoshlar. Qalinligi 50-110 m. Uchta bog'lamning (pachkaning) umumiy qalinligi 150-230 m. Ularning ustki qismida gips

yotqiziqlari qoplagan. Kesimning kuzatilgan qismi ko'zdan kechirilganda, uning tarkibi Kuhitong tog'ining shimoliy riflari qalin qavatli va pelitomorfidi oxaktoshlar aralashganligi kuzatiladi. Markaziy g'ovurdoq antiklinallaridan g'arbdagi kesimlardagi qatlam yotqiziqlarida 3-bog'lam to'liq biogerm va riflarni tashkil qilgan organik oxaktoshlarga aylanadi. Ulardan ko'plab aktiv rif quruvchi marjon poliplar kompleksi aniqlangan.

Yuqorida aytganimizdek, 3-bog'lam yotqiziq-g'ovurdoq antiklinalida yaxlit rif qatlamlariga aylanib, ular asosan marjon poliplar, rudistlar va suv o'tlaridan tashkil topgan tub jinslar bo'lib ularning ochilib qolgan yuzasini juda ko'p geolog olimlar tomonidan o'rganilgan (Omonniyozov, 1971; Ilin va boshqalar, 1976; Akromxo'jaev va boshqalar, 1978; Rusakov, 1984, 1987). G'ovurdoq yaxlit rifining kesimi litologik-petrografik tarkibi va hosil bo'lish jarayonlari, hamda, marjon poliplarning tarqalishiga ko'ra, to'rt bog'lamga ajratish mumkin (pastdan yuqoriga qarab).

1-bog'lam. Oxaktoshlar asosan kulrang bo'lib, marjon poliplar rudistlar va har xil organizm qoldiqlaridan tashkil topgan. alohida-alohida uncha katta bo'lmagan biogermilar hosil qilib birinchi tepasidan boshqasi qoplab turadi. Ushbu bog'lam yotqiziqlaridan quyidagi marjon polip turlari aniqlandi: *Heiio-coenia abichi* Babaev, *Stylosmilia suevica* Becker, *Cryptocoenia cf. limbata* (Goidfuss) va boshqalar. Rudistlar esa *Diceras* avlodiga tegishli bo'lib, birinchi marta izlanish olib borilayotgan territoriyadan, faqat g'ovurdoq yaxlit rifining I, II, va III bog'lamlari yotqiziq-lardan topildi (7-rasm). Bog'lam yotqiziqlarini sinchiklab qarab chiqqanimizda, marjon polip va rudistlardan tashqari, ko'plab ikki tabaqali mollyuskalar, gastropodalar va aniqlanishi qiyin bo'lgan boshqa organizm qoldiqlarini uchratish mumkin. Ularning oralarini asosan detrit va onkolitlar to'ldirib turadi. Bog'lamning qalinligi 20-25 metr.

2-bog'lam. Kulrang oxaktoshlar qatlami qalin bo'lib, kesimda ko'plab marjon polip va suv o'tlari hamda rudistlarni uchratish mumkin. Marjon poliplardan quyidagi turlari aniqlandi: *Thecosmilia cartieri* Ko'u, *Dermoseris delgadoi* Kobu va yangi marjon polip turi *Cyatopora babaevi* Khusanov. Bog'lam tarkibidagi jinslar xuddi oldingi bog'lamdagilarga juda o'xshab ketadi. Ularda ham gastropodalar, ikki tabaqali mollyuskalar va boshqa xil hayvonot va o'simlik dunyosi vakillari rif ko'rishda yordamchi vazifani bajaruvchilar uchraydi. Onkolit va detritlar bilan aralashib 20-30 metrli yaxlit tana hosil qilishgan.

3-bog'lam. Kulrang, marjon poliplari, suv o'tlari va rudistlarning qoldiqlaridan hosil bo'lgan qalin qavatli oxaktoshlardan tashkil topgan. Ba'zida mayda, sinq jins bo'laklaridan hosil bo'lgan yupqa qatlamchalarni uchratish mumkin, Bu bog'lamda quyidagi marjon polip vakillari uchraydi: *Calauipophyllia kurvakarensis* Babaev, *Pleurophyllia trichotomade* Fromentel va boshqalar. Bog'lam qalinligi 12-18 metr.

4-bog'lam. Kulrang, massivli, marjon polip va suv o'tlari ko'plab uchraydigan

organik oxaktosh yotqiziqlari. Ularning orasidagi marjon polip qoldiqlarining katta kompleksi aniqlangan: *Aplosmilium semusulcata* (Michelin), *Calamophylliopsis flabellum* (Michelin), *Diplocoenia gagarini* Babaev, *Thamnastria coneirina* (Goldfuss), *Comoseris irradiens* Edwards et Haime va boshqalar.


Bog‘lamning pastki qismida marjon polip avlodlarining shoxsimon (*Galomophylliopsis*, *Aplosmilium* va boshqalar) vakillari, ustki qismi yotqiziqlarida esa massivsimon, ya‘ni mox va lishaynikka o‘xshagan (*Comoseris*, *Microsolena* va boshqalar) avlodlari uchraydi. Bog‘lamning qalinligi 45-55 metr.

Yuqorida ko‘rib chiqdikki, Sharqiy Turkmanistonning g‘ovurdoq yaxlit rifi yotqiziqlaridan marjon poliylarning yaxshi saqlanib qolgan qoldiqlaridan ularning ko‘plab turlari aniqlangan. Bu marjon kompleksida uchraydigan turlarning avlodlarini Kuhitong tog‘idagi Daraydara, Kattadara va boshqa joylardagi karbonat formatsiyasining yuqori qismidagi kesimlarda uchratish mumkin. Bundan tashqari, Suvsiz tog‘da va Boysun tog‘laridagi karbonat formatsiyasining kesimlaridan ham marjon polipning boy kompleksi aniqlangan. Bu kompleks hozirgi G‘arbiy Yevropa, Qrim va Kavkaz, Janubiy va G‘arbiy O‘zbekiston, Sharqiy Turkmaniston va boshqa hududlarda yuqori yura davrida Tetis dengizining eng qulay sharoitlarida yashab, rif yotqiziqlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, Janubiy-G‘arbiy Hisor tog‘i etaklaridagi karbonat formatsiyasi hajmida hamma joyda bir xil qalinlikda rif yotqiziqlari hosil bo‘lmagan.

G‘ovurdoqdagi rif kesmasi.

Ярус	Ярусности	Серия	Боглам	Литологик колонка	Қалинлиги (м)	Жинсларнинг қисқача баёни М. – маржонлар Р. – рудистлар
Титон	Ҳўйи	ҲОВУР-ДОҚ				Гипслар
Кимериж	Ҳўйи-Ҳўри	Г	IV		50	Қуларанг оҳактошлар М. <i>Aplosmilium semusulcata</i> (Mich.), <i>Calamophylliopsis flabellum</i> (M.), <i>Diplocoenia gagarini</i> Babaev, <i>Thamnastria concinna</i> (Gold.), <i>Comoseris irradiens</i> E. et Haime, <i>Microsolena tuberosa</i> (Mich.), M. sp.
А	Ҳўри	Т	III		15	Қуларанг оҳактошлар М. <i>Calamophylliopsis kuzvakaensis</i> Babaev, <i>Pleuropkyllia trichotoma</i> de Fromentel.
Ф	Ҳўри	О	II		20-30	Қуларанг оҳактошлар М. <i>Thecosmilium cartierikovi</i> , <i>Dermoseris delgadoi</i> Kobu, <i>Cyathophora Babaevi</i> Khusanov, p. <i>Diceras inastrancevi</i> Pcel.
С	Ҳўри	У	I		20-25	Қуларанг оҳактошлар М. <i>Helio-coenia afichii</i> Babaev, <i>Stylosmilium suevica</i> Becker, <i>Cryptocoenia limbata</i> (Gold)
О	Ҳўри	Х				Чим босган жой.

Shartli belgilar.



1-marjonli 2-suv o'tli 3-onkolitli 4-rudistli

5-yirik bo'lakli 6-rkushnyak 7- gips 8-chim bosgan

(G'ovurdoq yaxlit rifi yotqiziqlarining umumiy qalinligi 100-120 metr.)

O'zbekistonning g'arbidagi yopiq hududlar hisoblanadigan Buxoro-Xiva neft-gaz xavzalaridagi karbonat formatsiyasi qatlami yotqiziqlari ham, xuddi Hisor tog'ining Janubiy-G'arbiy etaklaridagi kabi stratigrafik bo'linmalarga bo'linadi. Ular asosan kern namunalarini kuzatish natijasida aniqlanadi.

Oksford yarusiga tegishli oxaktoshlarda organik dunyoning yaxshi rivojlanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. G'arbiy O'zbekiston hududlarida quyi oksford paleobasseynining ko'tarilgan qismlarida linza, biostrom va biogermmlarga o'xshash yaxlit geologik tanalar vujudga kela boshlaygan (Sharqiy Zevardi, Kultok, Kamashi, Nishon va boshqalar). Bu maydonlardagi kesimlarda quyi oksford qatlami yotqiziqlarining qalinligi birmuncha kengaya boradi, biroq ular paleobasseyn ichida reliefning keskin ko'zga tashlanadigan shaklga aylanmagan. Hali yaxlit rif yotqiziqlari hosil bo'lmagan.

O'rta oksford qatlami yotqiziqlari karbonat formatsiyasi tarkibida juda muhim o'rin egallaydi. Shu paytdan boshlab Buxoro-Xiva neft-gazli regionidagi karbonat formatsiyasi oxaktoshlarini asosan organik dunyo vakillari tashkil qiladi. Ulardan eng asosiysi marjon poliplardan tashkil topgan biogermmlar, biostromlar va eng qulay paleoekologik sharoit bo'lgan maydonlarda esa yaxlit riflar shakllana boshlaydi (O'rta bo'loq, Ko'kdumalok, Dengizko'l, Zevardi, Sho'rton, Janubiy Tandircha, Shakarbo'loq va boshqalar). Bunda albatta asosiy rolni marjon poliplar o'ynaydi. Ular ko'plab to'dalar hosil qilib, suv o'tlari ishtirokida riflar hosil qila boshlaydi.

Bu jarayon yuqori oksford va kimerij asrini ham o'z ichiga oladi. O'rta-yuqori oksford va kimerij qatlami yotqiziqlaridagi yaxlit riflarning tarkibi, tuzilishi va marjon poliplarning tarqalishiga qarab, to'rt-beshtagacha bog'lam ajratish mumkin. Har bir bog'lamda gidrodinamik faollikning ko'rinishlari mavjud, bunda dengiz satxining o'zgaruvchanligi, jinslarning navlarga ajralishi bilan bir-biridan farqlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev G. G'arbiy va Janubiy O'zbekistonning yuqori yura karbonat shakllanishining stratigrafiyasi va ikki pallali mollyuskalari. Muallif.diss. kand. - geol. - min.fanlar. Dushanbe, 1987, 19 s.
2. Abetov E. M. Hisorning janubi-g'arbiy shoxlarining yuqori yura karbonat

shakllanishi. Nashr. Ilm-fan, Toshkent, 1965, 138 s.

3. Akramxodjayev A. M., Egamberdiyev M. E. va boshqalar. Janubiy va G'arbiy O'zbekistonning litologiyasi, stratigrafiyasi va neft-gazliligi. Toshkent, 1971, 200 s.

4. Akramxodjayev A. M., Mirkamalov X. X., Husanov S. T. va boshqalar. neft va gaz konlarini maqsadli qidirish uchun asos sifatida g'arbiy O'zbekiston yura terrigen va karbonat shakllanishining ko'p fazli tolshlari korrelyatsiyasining biostratigrafik asoslanishi. IV ma'ruzalar tezislar. Idoralararo stratigrafik konferentsiya. Ashxobod, 1983 yil. C.I4-I6.

5. Akramxodjayev A. M., Mirkamalov X. X. va boshqalar. G'arbiy O'zbekistonning yuqori yura karbonat shakllanishining stratigrafiyasi. Izv. – qaniydi. SSSR FANLAR AKADEMIYASI. Ser. - geol. - 1985, № 8. 47-55-betlar.

6. Bo'riev S.S. "G'arbiy o'zbekistonda terrigen yura yotqiziqlarining gazlilik istiqbollari". Journal of new century innovations 38.1 <https://newjournal.org/new/article/view/8897> (2023): 93-96.

7. Bo'riev S.S. "Qatlamni Gidravlik Yorish (Qgy) ni amalga oshirishda qo'llaniladigan agregatlarning bog'lanmasi". International conferences. Vol. 1. No. 1. 2023.

8. Bo'riev S.S. "Kon sharoitida qatlam gidravlik yorilgandan keyin quduqda yuvish ishlarini amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar". Educational Research in Universal Sciences 2.4 (2023): 582-585.

9. Bo'riev S.S. "Gaz ajratgichning ish prinsipi va tuzilishini o'rganish." Образование наука и инновационные идеи в мире 34.3 <https://newjournal.org/01/article/view/9782> (2023): 163-168.

10. Bo'riev S.S, and Raufov M.M. "Qatlamni sinab ko'rish usullari. qatlamni to'g'ridan-to'g'ri sinab ko'rish usullari. ximoya tizmasi orqali sinash." Образование наука и инновационные идеи в мире 34.3 <https://newjournal.org/01/article/view/9783> (2023): 169-173.

11. Bo'riev S.S. "Quduq tubi dvigatellari yordamida burg'ilashda quduqni sirkulyatsion tizimidagi bosim yo'qotilishini hisoblash". Образование наука и инновационные идеи в мире 34.3 <https://newjournal.org/01/article/view/9784> (2023): 174-178.

12. Bo'riev S.S. "Kon shroitida qo'llaniladigan qatlamni gidravlik yorish texnikalari va texnologiyalarini qo'llanilish tahlili." Educational Research in Universal Sciences 2.1 (2023): 54-58.

13. Bo'riev S.S. "Qatlamni gidravlik yorishda qo'llaniladigan eritmalar turini asoslash." Journal of new century innovations 11.1 <https://newjournal.org/new/article/view/1321> (2022): 69-75.

14. Bo'riev, S.S, Eshturdiyev T. D. (2024). "Zarafshon-oloy kamari nodir va kamyob metallar ma'danlashuvining metollogeniyasi". Educational Research in Universal Sciences, 3(11), <https://researchweb.uz/index.php/erus/article/view/15> 40-44.